

Toshkent xalqaro investitsiya forumi: kimyo sanoati investitsiyalar va innovatsiyalar markazida

// 16 June 2026 yil

<https://special.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/toshkent-xalqaro-investitsiya-forumi-kimyo-sanoati-investitsiyalar>




2026-yilning 16-18-iyun kunlari Toshkent shahrida mamlakatning asosiy investitsiya platformasi hamda Markaziy Osiyodagi eng nufuzli ishbilarmonlik maydonlaridan biri sanalgan **Beshinchi yubiley Toshkent xalqaro investitsiya forumi bo'lib o'tmoqda.**

So'nggi yillarda forum nafaqat global kapitalni jalb qilish mexanizmi, balki mintaqaning investitsiya kun tartibini belgilab beruvchi strategik muloqot maydoni sifatida ham xalqaro e'tirofga sazovor bo'ldi. Joriy yilgi tadbirda dunyoning 99 ta mamlakatidan 8 mingdan ortiq ishtirokchi, shu jumladan 3,1 ming nafardan ziyod xorijiy mehmon qatnashishi kutilmoqda.



Forumda “O‘zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyati kimyo sanoati salohiyati, investitsiya imkoniyatlari va tarmoqda amalga oshirilayotgan transformatsiya jarayonlarini namoyon etuvchi keng ko‘lamli ekspozitsiya bilan ishtirok etmoqda.



Ekspozitsiya beshta tematik zonadan iborat bo‘lib, unda tarmoqning iqtisodiyotning turli sohalari bilan integratsiyasi, yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish zanjirlari, eksport salohiyati, ilm-fan va innovatsiyalar bilan hamkorlik hamda istiqbolli investitsiya loyihalari taqdim etilgan.



Tadbirning birinchi kunidayoq mahalliy va xorijiy hamkorlar ishtirokida qator B2B va B2G formatdagi uchrashuvlar tashkil etildi. Mazkur muloqotlar yangi sheriklik munosabatlarini yo'lga qo'yish, investitsiya loyihalarini muhokama qilish va o'zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirish uchun muhim platforma vazifasini o'tamoqda.



Joriy yilgi forum doirasida ham "O'zbekimiyosanoat" AJ tomonidan bir qator muhim investitsiya

kelishuvlari va hamkorlik memorandumlarini imzolash rejalashtirilgan bo'lib, bu tarmoqning investitsiyaviy jozibadorligini yanada oshirish va yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

